

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

34- umumiy o'rta ta'lif maktabi Boshlang'ich sinf 1 toifali o'qituvchisi

Pardaboyeva Mayjuda Abdusalomovna

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lifni innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish hamda o'qituvchi maqsadlarga erishish uchun yangi rejalarini belgilab olishining muhimligi haqida yozilgan. Umumta'lif maktablarning fundamental qismi bo'lgan boshlang'ich ta'lif tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifalari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lif, moderniyatsiya, ona tili, o'qish matematika, fundamental.

Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak deb keltirib o'tganidek, biz oldimizdag'i maqsadlarga erishish uchun yangi rejalarini belgilab olishimiz talab etiladi. Uzluksiz ta'lif tizimida asosiy bog'in hisoblangan umumta'lif maktablarning aynan fundamental qismi bo'lgan boshlang'ich ta'lif tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va bu tizimda oqitiladigan barcha fanlarni qilish asosiy vazifamiz bo'lmog'i lozim. Bola aynan 7 yoshda maktabda tahsil olish uchun qabul qilinadi va shu yoshda dunyoviy bilimlarni egallashga tayyor bo'ladi.

Maktabgacha ta'lif muasassalarida yetarli bilim ko'nikmalarga ega bo'lib kelgan bolalar maktabga kelganda bu ko'nikmalar yanada chuqurlashtirilib nazariy bilimlar bilan boyitiladi. Bunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lif tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni uzviy yo'lga qo'yish masalalariga ham teran

yondashuvlar talab qilinadi. Boshlang'ich ta'lif rivojlangan mamlakatlarning ta'lif tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Ko'pgina davlatlarning ta'lif tizimini o'rganish davomida boshlang'ich ta'limga alohida o'ringa ega ekanligi va o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni egallash doirasi kengro ekanligi aniqlangan. Aynan sharq mamlakatlarida boshlang'ich sinfdayoq o'quvchilar murakkab masalalarni osonlik bilan esga olishga o'rgatib borilgan va bu mamlakatning shiddat bilan rivojlanishida o'z ahamiyatini ko'rsatmoqda. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan asosiy predmetlar bular ona tili, o'qish va matematika darslaridir. Biz bu darslarning yanada samaradorligini oshirish, fanlarni o'qitishning ilg'or texnologiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida jahon tajribasida sinalayotgan usullardan tolaqonli foydalanishga erishishimiz zarur. Bularidan biri integratsion ta'lifdir. "Integratsiya - differentsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zara yaqinlashuvi va bog'liqligida ko'rindi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog'liklikning yuqori shaklida namayon bo'ladi" eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Har bir fanda o'tilayotgan dars mavzusi o'zining ta'lifiy maqsadidan sheklanmagan holda ingliz tili bilan solishtirish va lug'at mashqlari o'quvchining tilni o'rganishdagi qiyinchiliklarini yengishiga yordam berib, ingliz tili bo'yicha sovodonligini oshiradi. Dars davomida fanni ingliz tili bilan bog'lashda mashq 3-5 daqiqtadan ortmasligi va o'quvchilarning o'zlashtirish doirasiga ham ta'sir qilmasligi kerak. Shunung uchun asosan nimalarga e'tibor berish kerak; bular: so'zlarning A1 darajadaligi, atamalarning o'qilishi va yozilishining qisqa, tushunarli bo'lishi va kerakli hajmdan oshmasligi. Buning uchun albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zları ingliz tilidan kerakli bilimlarga ega bo'lishi va kerakli ma'lumotlarni izlab topish uchun o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim. Bu ikkinchi hihatdan o'qituvchining ingliz tili bo'yicha lug'at boyligini oshirib borish uchun ham xizmat qiladi. Ta'lifni modernizatsiyalashda mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda fanlarning o'zaro ingliz tili bilan bog'liqlik jihatlarini o'rganib chiqish, solishtirish asnosida

natijalar hosil qilish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san'ati. T.:O'qituvchi.1991.
2. Azizzo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.
-T.: TDPU. 2000.
3. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lif fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. 2017.
4. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013.